

Ўзбекистон Республикаси
Марказий банки томонидан
2026 йил “24” феврал да
93/3 - рақам билан
рўйхатга олинди



Ўзбекистон Республикаси
Марказий банки Бошқарув
Раисининг биринчи ўринбосари

Н.Н.Сайдуллаев

**“БИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БАНКИ”
АКЦИЯДОРЛИК ТИЖОРАТ БАНКИ
УСТАВИГА ЎЗГАРТИРИШЛАР**

Банк акциядорларининг навбатдан
ташқари Умумий йиғилиши
2026 йил 29 январдаги
59-сонли қарори билан
“ТАСДИҚЛАНГАН”



Умумий йиғилиш раиси

С.С.Ходжаев

Тошкент ш.
2026 йил

“Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ Уставига ўзгартиришлар

“Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилишининг 2026 йил 29 январдаги 59-сон қарори билан тасдиқланган “Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ Уставига қуйидаги ўзгартишлар киритилсин:

1. Банк Уставининг 16-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“16. Банкнинг устав капитали Ўзбекистон Республикаси миллий валютасида шакллантирилади ҳамда банк муассислари ва акциядорлари киритган пул маблағларидан ёки давлатнинг қимматли қоғозларидан ташкил топади, бундан қуйидаги ҳоллар мустасно:

банк акцияларини банкнинг кредиторлари орасида жойлаштириш ва банкнинг кредиторлар олдидаги пул мажбуриятлари бўйича ҳар қандай ҳуқуқларини (талабларини) ҳисобга олиш йўли билан уларнинг ҳақини тўлаш;

қимматли қоғозларни банк акцияларига айирбошлаш;

банкнинг жойлаштирилган бир турдаги акцияларини ушбу банкнинг бошқа турдаги акцияларига алмаштириш.

Банкнинг устав капиталини шакллантириш учун кредитга, гаровга олинган маблағлардан, шунингдек мажбурият юклатилган бошқа маблағлардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

Банкнинг устав капитали 5 689 083 510 324,00 (беш триллион олти юз саксон тўққиз миллиард саксон уч миллион беш юз ўн минг уч юз йигирма тўрт) сўмни ташкил қилади.”.

2. Банк Уставининг 24-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“24. Банкнинг жойлаштирилган акциялари сони 47 707 199 248 (қирқ етти миллиард етти юз етти миллион бир юз тўқсон тўққиз минг икки юз қирқ саккиз) дона бўлиб, шундан:


эгасининг номи ёзилган, оддий, ҳужжатсиз акциялар сони 47 698 199 248 (қирқ етти миллиард олти юз тўқсон саккиз миллион бир юз тўқсон тўққиз минг икки юз қирқ саккиз) дона;

эгасининг номи ёзилган, имтиёзли, ҳужжатсиз акциялар сони 9 000 000 (тўққиз миллион) дона.”.

3. Банк Уставининг 26-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“26. Банк жойлаштирилган акцияларга қўшимча равишда жойлаштиришга ҳақли бўлган эълон қилинган оддий акцияларнинг сони 35 000 000 000 (ўттиз беш миллиард) донани ва номинал қиймати 119,25 (бир юз ўн тўққиз сўм 25 тийин) сўмни ташкил қилади. Ушбу эълон қилинган акциялар банкнинг кузатув кенгаши томонидан очик ва ёпиқ тартибда жойлаштирилади.”.

Кузатув кенгаши аъзоси



С.С. Ходжаев

**“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB AKSIYADORLARINING
NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHI**

Toshkent sh. A.Navoiy ko‘chasi, 18 A

2026-yil 29-yanvar, soat 11:00

59 - sonli B A Y O N N O M A

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish (keyingi o‘rinlarda - yig‘ilish) bank Kuzatuv kengashining **2026-yil 6-yanvardagi 1-sonli majlis qarori** asosida chaqirilgan.

Yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxati aksiyadorlarning **2026-yil 23-yanvar** holatiga olingan reestri asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan majlisda bank Kuzatuv kengashi a‘zosi S.S.Xodjayev raislik qildi.

Yig‘ilishni o‘tkazish uchun kvorum mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni e‘lon qilish uchun sanoq komissiyasi vakili O.X.Xolyigitovga so‘z berildi.

Sanoq komissiyasi vakili O.X.Xolyigitov quyidagilarni ma‘lum qildi:

Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi tomonidan 2026-yil 23-yanvar holatiga berilgan bank aksiyadorlari reestriga muvofiq, ovoz berishda 9869 ta aksiyadorga tegishli 47 698 199 248 dona ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalar qatnashishi mumkin. Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqti tugaganda, umumiy miqdorda 47 448 508 876 dona ovoz beruvchi aksiyalarga ega bo‘lgan 2 ta aksiyador ro‘yxatdan o‘tdi. Bu esa umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning **99,48** foizini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 68-moddasi va bank Ustaviga asosan agar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi. Shunga ko‘ra, aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi barcha masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Yig‘ilish bayonini yuritish uchun yig‘ilish kotibi etib, Sh.J.Maxammadov nomzodi taklif qilindi, aksiyadorlar tomonidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan bir ovozdan ushbu nomzod tasdiqlandi.

Shundan so‘ng, yig‘ilish Raisi bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini ochiq deb e‘lon qildi va yig‘ilish kun tartibini o‘qib eshittirdi.

KUN TARTIBI:

1. Bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;
2. E‘lon qilinadigan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;
3. Bank ustaviga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida;
4. Bankning “Bank Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi” va “Bank Boshqaruvi to‘g‘risidagi” Nizomlarni Yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida;
5. Bankda korporativ boshqaruv tizimini 2024-yil yakuniga ko‘ra o‘tkazilgan mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish;
6. Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida;

7. Istiqbolli deb topilgan issiqxona xo'jaliklariga hisoblangan penya qarzdorliklarini hisobdan chiqarish to'g'risida.

1. Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan yig'ilish Raisi S.S.Xodjayev so'zga chiqib yig'ilish ishtirokchilarini umumiy yig'ilishni o'tkazish reglamenti bilan tanishtirdi va uni quyidagicha tasdiqlash taklifini kiritdi:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzalar uchun – 10 daqiqagacha;
- qo'shimcha ma'ruzalar, muxokama va savol-javoblar uchun – 5 daqiqagacha;
- ovoz berish natijalarini sanab chiqish uchun tanaffus – 10 daqiqa.

Ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagicha tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlariga – 10 daqiqagacha;
- qo'shimcha chiqishlar, e'tiroz va muzokaralar uchun – 5 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini hisoblash uchun tanaffus – 10 daqiqa.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 508 876 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

2. Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Korporativ boshqaruv xizmati bosh menejeri Sh.Maxammadov so'zga chiqib quyidagilarni ma'lum qildi:

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida e'lon qilinadigan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. Bank ustav kapitalini oshirish maqsadida e'lon qilingan aksiyalar hajmi 35 000 000 000 (O'ttiz besh milliard) dona miqdorida, nominal qiymati 119,25 (Bir yuz o'n to'qqiz so'm 25 tiyin) so'm bo'lgan oddiy aksiyalardan tashkil topishi belgilansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 508 876 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

3. Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan Korporativ boshqaruv xizmati bosh menejeri Sh.Maxammadov so'zga chiqib quyidagilarni ma'lum qildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-312-sonli va PQ-313-sonli qarorlari talablaridan kelib chiqib, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan 2024-yil 17-oktabrda ro'yxatga olingan bankning qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga asosan muomalaga chiqarilgan umumiy qiymati 2 713 607 260 470,00 so'mlik aksiyalaridan 2 689 083 510 252,75 so'mlik qismi to'liq joylashtirildi.

Natijada, bankning shakllangan ustav kapitali miqdori 3 000 000 000 071,25 so'mdan 5 689 083 510 324,00 so'mga yetkazildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. Bankning ustav kapitali miqdori 5 689 083 510 324,00 so'mga yetkazilishi munosabati bilan bank ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 508 876 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

4. Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan Yuridik departamenti direktori A.Nazarov so'zga chiqib quyidagilarni ma'lum qildi:

Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bankning bir qator ichki hujjatlarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha mas'ul bo'limlarning takliflari ko'rib chiqildi. Bunda, bank Boshqaruvi hamda Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomlar yangi tahrirda taqdim etildi. Mas'ul departament direktorlari tomonidan taklif etilayotgan yangiliklar to'g'risida hisobot berilib, hujjatlarga kiritilayotgan o'zgarish va qo'shimchalarga izohlar taqdim etildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. Ushbu masala yuzasidan Yuridik departamenti direktori A.Nazarovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Boshqaruvi to'g'risida”gi nizomning yangi tahriri 2-ilovaga muvofiq;

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashi to'g'risida”gi nizomning yangi tahriri 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

3. Mazkur ichki me'yoriy hujjatlar amalga kiritilishi munosabati bilan bank aksiyadorlarining 2023-yil 28-sentabrdagi navbatdan tashqari 54-sonli Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan:

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Boshqaruvi to'g'risida”gi nizom;

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashi to'g'risida”gi nizom bekor qilinsin.

4. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi zimmlariga bank faoliyatini yuritish va uni boshqarishda amalga kiritilgan Nizomlar asosida ish tashkil qilish vazifasi yuklatilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 458 876 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 50 000 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo'q.

5. Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan bankning Korporativ boshqaruv xizmati bosh menejeri Sh.Maxammadov so'zga chiqib quyidagilarni ma'lum qildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni asosida hamda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish Hukumat komissiyasining 2016-yil 11-fevraldagi 02-02/1-187-sonli majlis bayoni bilan Korporativ boshqaruv kodeksi tasdiqlangan.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishida "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimida Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya etish majburiyatini qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga asosan aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini baholash amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, 2025-yil 9-oktabrda mustaqil baholovchi tashkilot "Investment Management Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning korporativ boshqaruv tizimi baholandi va taqdim etilgan hulosaga muvofiq 708 ballni tashkil etib, "Yuqori" deb topildi (Baholash hulosasi ilova qilinadi).

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. *"Biznesni rivojlantirish banki" ATBning "Investment Management Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2024-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan Korporativ boshqaruv tizimini baxolash natijalari ma'lumot uchun qabul qilinsin va 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 508 876 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

6. Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan Inson resurslarini boshqarish departamenti (HR) direktori A.Azimov so'zga chiqib quyidagilarni ma'lum qildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi PQ-178-sonli "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga raqamlashtirishni keng joriy etish orqali boshqaruv apparati shtat birliklari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida samaradorlikni oshirish va raqamlashtirish hisobiga boshqaruv kadrlarini 10 foizga optimallashtirish vazifasi qo'yilgan.

Bankka yuklatilgan vazifa va topshiriqlar ijrosini to'laqonli bajarish maqsadida bank tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritish zaruriyati yuzaga kelmoqda

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. *"Biznesni rivojlantirish banki" ATBning amaldagi tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.*

2. *Bank Boshqaruvi (S.Annaklichev)ga bankning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlar asosida shtatlar jadvaliga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish*

hamda xodimlar bilan mehnat munosabatlarini amaldagi Mehnat qonunchiligi asosida amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 458 876 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 50 000 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo'q.

7. Kun tartibidagi ettinchi masala yuzasidan Monitoring departamenti direktori O.Almardonov so'zga chiqib quyidagilarni ma'lum qildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-oktabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-181-sonli Farmonning 3-bandiga muvofiq tijorat banklariga bir oy muddatda mavjud issiqxona xo'jaliklarini xatlovdan o'tkazish hamda xatlov natijalariga ko'ra, istiqbolli deb topilgan issiqxona xo'jaliklariga 2025-yil 1-oktabrgacha ajratilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar to'lov grafiklarini kelgusidagi pul oqimlaridan kelib chiqib, qayta ko'rib chiqish hamda hosil bo'lgan penya summalarini hisobdan chiqarish yuklatilgan.

Mazkur Farmon doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga 2025-yil 14-oktabrda 32-11/1471-sonli ko'rsatma xat bilan har bir issiqxona xo'jaliklarini quyidagi mezonlarga asosan to'liq xatlovdan o'tkazish topshirig'i berilgan. Bunda:

1-toifa barqaror (yashil) – issiqxona sohasida iqtisodiy barqaror, amaldagi to'lov grafigiga rioya qilayotgan xo'jaliklar;

2-toifa o'rta darajadagi (sariq) – kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish zarur bo'lgan yoki aylanma mablag' uchun qo'shimcha kredit ajratilsa ahvoli yaxshilanib ishlab ketadigan xo'jaliklar;

3-toifa past darajadagi (qizil) – sog'lomlashtirib bo'lmaydigan va bank balansiga olib sotiladigan xo'jaliklar.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Monitoring departamenti tomonidan 2025-yil 1-oktabr holatiga o'tkazilgan xatlov va o'rganish natijalariga ko'ra issiqxona xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi 90 ta korxonaga ajratilgan kreditlar qoldig'i 844,9 mlrd. so'mni tashkil qilishi, shundan 45 tasi (422,1 mlrd. so'm) istiqbolli (yashil va sariq toifa) va qolgan 45 tasi (422,8 mlrd. so'm) istiqbolsiz (qizil toifa) deb topilgan. Shuningdek, issiqxona xo'jaliklariga ajratilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarga jami 4,36 mlrd. so'm miqdorida penya hisoblangan bo'lib, shundan istiqbolli issiqxona xo'jaliklariga 1 016,0 mln. so'm hisoblanganligi aniqlangan.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-oktabrdagi PF-181-sonli Farmoniga muvofiq o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra istiqbolli deb topilgan issiqxona xo'jaliklariga hisoblangan penya qarzdorliklari 6-ilovaga muvofiq hisobdan chiqarilsin.

2. Monitoring departamenti (O.Almardonov) muddati o'tgan majburiyatlar va penyalar hisoblanishining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida issiqxona xo'jaliklari ustidan monitoring mexanizmlarini kuchaytirish vazifasi topshirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 458 876 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 50 000 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo'q.

Kun tartibidagi barcha masalalar ko'rib chiqilganidan keyin yig'ilish raisi to'ldirilgan byulletenlarni sanoq komissiyasiga berishlarini so'radi.

Ovoz berish yakunlari hisoblab chiqilganidan keyin sanoq komissiyasi vakili O.X.Xolyigitov kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish yakunlarini e'lon qildi.

Ovoz berish yakunlari bo'yicha Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar e'lon qilindi.

QABUL QILINGAN QARORLAR:

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

1. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagicha tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlariga
- 10 daqiqagacha;
- qo'shimcha chiqishlar, e'tiroz va muzokaralar uchun – 5 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini hisoblash uchun tanaffus – 10 daqiqa.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. Bank ustav kapitalini oshirish maqsadida e'lon qilingan aksiyalar hajmi 35 000 000 000 (O'ttiz besh milliard) dona miqdorida, nominal qiymati 119,25 (Bir yuz o'n to'qqiz so'm 25 tiyin) so'm bo'lgan oddiy aksiyalardan tashkil topishi belgilansin.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. Bankning ustav kapitali miqdori 5 689 083 510 324,00 so'mga yetkazilishi munosabati bilan bank ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilsin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

4. Quyidagilar:

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Boshqaruvi to'g'risida"gi nizamning yangi tahriri 2-ilovaga muvofiq;

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizamning yangi tahriri 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

5. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning "Investment Management Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2024-yil yakunlari bo'yicha

o'tkazilgan Korporativ boshqaruv tizimini baxolash natijalari ma'lumot uchun qabul qilinsin va 4-ilogaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

6. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning amaldagi tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlar 5-ilogaga muvofiq tasdiqlansin.

Bank Boshqaruvi (S.Annaklichev)ga bankning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan o'zgartirishlar asosida shtatlar jadvaliga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda xodimlar bilan mehnat munosabatlarini amaldagi Mehnat qonunchiligi asosida amalga oshirish vazifasi topshirilsin.


Kun tartibidagi ettinchi masala bo'yicha:

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-oktabrdagi PF-181-sonli Farmoniga muvofiq o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra istiqbolli deb topilgan issiqxona xo'jaliklariga hisoblangan penya qarzdorliklari 6-ilogaga muvofiq hisobdan chiqarilsin.

Monitoring departamenti (O.Almardonov) muddati o'tgan majburiyatlar va penyalar hisoblanishining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida issiqxona xo'jaliklari ustidan monitoring mexanizmlarini kuchaytirish vazifasi topshirilsin.

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi bayonnomasi 2 (ikki) nusxada tuzildi va 2026-yil "05" fevral da imzolandi.

Umumiy yig'ilish Raisi,
"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
Kuzatuv kengashi a'zosi



S.S.Xodjayev

Yig'ilish kotibi



Sh.J. Maxammadov



**Biznesni
Rivojlantirish
Banki**

Ўзбекистон Республикаси, 100011,
Тошкент шаҳри, А.Навоий кўчаси, 18-А.
headoffice@brb.uz, www.brb.uz
Телефон: 1254

2026 йил «09» «феврал»
22-05/2121

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкига

Ушбу орқали Сиздан, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2020-йил 30-июнда 3252-сон билан рўйхатга олинган “Банк фаолиятига рухсат бериш тартиби ва шартлари тўғрисида”ги низомнинг 165-бандига асосан “Бизнесни ривожлантириш банки” акциядорлик тижорат банки уставига киритилаётган ўзгартиришларни рўйхатдан ўтказишга рухсат беришингизни сўраймиз.

Аризага илова қилинадиган ҳужжатлар рўйхати ____ варақда:

- 1) Уставга ўзгартиришлар киритиш тўғрисидаги банкнинг тегишли ваколатли бошқарув органининг қарори (йиғилиш баённомаси) нусхаси.
- 2) Банк Кузатув кенгаши аъзоси имзолаган банк уставига киритиладиган ўзгартиришлар матни.

Бошқарув раисининг
биринчи ўринбосари
в.б



Ш.Юсупов

Ўқрувчи: О.Холмуситов

<https://hujat.brb.uz/?pin=iW89hJ46&id=faca83f7-e9c8-4376-8192-5bb9ea473cd7>

Tikilgan va raqamlangan

10 (10)

Yaratqan iborat

2026-yil

24 - Iyul

Imzo

